

## SIYOSIY ELITA SIRKULYATSIYASI

Niyozov Nurillo G'afurjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Siyosatshunoslik kafedrasi Siyosatshunoslik yo`nalishi 3^A-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Elita sirkulyatsiyasi mazmuni. "Klassik sirkulyatsiya" nazaryasi. Elitaning o'zgaruvchan hamda reproduktiv sirkulyatsiyasi. Kvazi reproduktiv sirkulyatsiya. Elita degradadsiyasi turlari. Zamonaviy elita sirkulyatsiyasi.

**Kalit so`zlar:** elita, sirkulyatsiya, klassik sirkulyatsiya, reproduktiv, kvazi reproduktiv, tranzit, instrumental, legitimlik.

### KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning har bir institutsional segmentatsiyasi o'z elitasiga ega. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda harbiy, ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va diniy elitalarni farqlash lozim. Davlat va jamiyat oralig'ida harakatlanayotgan elita davlat hamda jamiyat institutlariga xos bo'lgan elitarlashuvga ega.

Elita sirkulyatsiyasi – bu mavjud siyosiy rejimlarning almashinishi yoki inqilobiy o'zgarishi natijasida eski elitaning o'rnini yangi elita egallashi hodisasidir. Elita sirkulyatsiyasi tushunchasi ikkita ta'rifga ega: sirkulyatsiya ijtimoiy va siyosiy jarayon sifatida. Birinchi holda, elita sirkulyatsiyasi - iqtisodiy va boshqa omillar ta'sirida ijtimoiy jarayonning sub'ektlari sifatida elitaning sifat o'zgarishlari jarayoni. Ikkinci holda, elita sirkulyatsiyasi hokimiyat elitasini tashkil etuvchi shaxslarning o'zgarishini anglatadi. Elita sirkulyatsiyasi jarayoni asta-sekin, tabiiy va "evolyutsion" tarzda aniqlanishi yoki inqilob bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Birinchi holda, elitaning o'zgarishi hukmon elitaning tabiiy bosqichma-bosqich tanazzulga uchrashi, jamiyatdagi sifat o'zgarishlari va aristokratiyani o'zgartirish zaruratining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, elita har qanday holatda ham omma bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va bu o'zaro ta'sir jarayonida ikkinchisining taniqli vakillari ham elitalar doirasiga ko'tarilib, ularning yangilanishiga olib keladi. Hech bir elita to'satdan paydo bo'lishi va birdan yo'qolishi mumkin emas. U asta-sekin ajralib turadi va o'z vakolatlarini yo'qotadi, buning natijasida u yangi elita bilan almashtiriladi va bu cheksiz sodir bo'ladi, bu elita sikli. U bir necha bosqichlardan iborat: hukmon elita tomonidan ijtimoiy guruhning shakllanishi; boshqaruv apparatining barqaror faoliyat yuritish jarayoni, hokimiyatning saqlanishi, bu davrda elitaning rivojlanishi, uning mohiyatining ochilishi. Elita sikli elitaning tanazzulga uchrashi va uning o'limi deb ataladigan narsa bilan tugaydi, bu davrda elita ichida parchalanish sodir bo'ladi. Eski elitaning o'limi jarayonida yangi elita allaqachon o'z ko'tarilishni boshlaydi.

Klassik sirkulyatsiya nazariyalari. Nikolo Makiavelli o'zining "Hukumdar" asarining "Hukmdorlar so'zining ustidan qanday chiqishi kerak" nomli XVII bobida shunday deydi: "Hukmdor barcha tirik mavjudodlarga taqlid qilish san'atini o'rganishi

kerak, va ular arslon kabi, tulki kabi o'zgara olishlari kerak. Chunki arslon tuzoqdan, tulki bo'ridan himoyalanmagan. Shu bois tuzoqqa tushmaslik uchun tulki, bo'rii qo'rqirish uchun esa arslon bo'la olish kerak. Bittasini tanlaganlar buni tushunmaydilar. Doim sherga o'xshaganlar tuzoqni sezmaydilar."

Zamonaviy sirkulyatsiya modellari. Elitaning birinchi nazaryalari XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Elita sirkulytsiyasiyasing klassik modeli – bu G. Moska va V. Paretoning barqaror va samarali elita boshqaruvi bilan bog'langan sirkulyatsiya nazariyasi turidir. Ushbu sirkulyatsiya darajasi keng va ijtimoiy chuqurdir. Bu tip elita sirkulyatsiyasing evolyutsion tabiat bilan tavsiflanadi. Sirkulyatsiyaning ushbu turining ishlashi moslashuvchan bo'limgan siyosiy rahbarlarni nizolarga kamroq moyil bo'lgan shaxslar bilan almashtrish uchun, ularni istisno qilish yoki ko'proq kooperativ siyosatchilarga bo'yundirish uchun etarli. Elita yangilanishining bosqichma-bosqich va tinch tabiat ko'tarilgan va tushuvchi guruhlar o'rtasidagi muzokaralar va hamkorlikka asoslanadi. Ushbu modelga ko'ra tranzitga uchragan elita o'z shaklini o'zgartirmaydi, aksincha faqat davlat va jamiyat bilan moslashuvni amalga oshiradi. Va bunda faqatgina elitaning nomi va shakli o'zgaradi xolos.

Italyalik iqtisodchi va sotsolog V. Pareto o'z qarashlarida elita sirkulyatsiyasi (aylanishi, o'zgarishi) tushunchasini ilgari suradi. Uning fikricha ijtimoiy jarayonlarning asosini elitaning hokimiyat uchun kuchi va kurashi tashkil etadi. V. Pareto elita o'z hokimiyatini ikki muhim vosita orqali amalga oshirishini isbotlaydi:

Instrumental vositalarga: elitaning funksiyasi, vakolati, resursi, ta'sir doirasasi, ta'sir doirasidan kelib chiqib amalga oshiradigan qarori kabi vositalarda namoyon bo'ladi.

Legitimlik – bu vositani V. Pareto psixologik vosita deb ham ataydi.

V. Pareto ijtimoiy dinamikani tushuntirish uchun ma'lum bir pozitsiyani shakllantirdi: ijtimoiy tizim muvozanatga intiladi va vaqt o'tishi bilan uni muvozanatdan chiqarganda unga qaytadi; tizimning tebranishi va uning muvozanatning "normal holatiga" kelishi jarayoni ijtimoiy tsiklni tashkil qiladi; siklning borishi elita aylanishining xususiyatiga bog'liq. Pareto tarixiy jarayonni namoyish etishga intildi elitalarning asosiy turlarining abadiy aylanishi shaklida. V. Paretoning o'zi elita aylanishi haqida shunday yozgan: "...jamiyatning quyi qatlamlarida paydo bo'ladigan doimiy aylanish jarayonida uning yuqori qatlamlariga ko'tariladigan, u erda o'z makonini egallab oladigan va keyinchalik tanazzulga yuz tutadigan, yuvilib ketadigan va yo'q bo'lib ketadigan yangi elita fenomeni eng muhim tarixiy faktlardan biridir. va yirik ijtimoiy harakatlarni tushunish uchun hisobga olinishi kerak. Ko'pincha bu ob'ektiv hodisaning mavjudligi bizga ehtiroslar va xurofotlarning ta'siri bilan qoplanadi va biz uni qanday qabul qilishimiz haqiqatda qanday bo'lishidan sezilarli darajada farq qiladi." U o'z fikrini xulosalab elita sirkulyatsiyasi navbatma navbat sodir bo'ladigan jarayon deb ataydi. V. Paretoning "tarix aristokratlar qabristoni" degan mashhur bayonotiga murojaat qilish odatiy holdir, bu elitalarning aylanish jarayonini tushuntiruvchi bayonot sifatida talqin

etiladi. Birgalikda shu bilan birga, V. Pareto "aristokratiya" va "elita" tushunchalarini ajratib turadi (e'tibor bering, V. Pareto bular tushunchalar ba'zan bir-birining o'rnida ishlatilgan). Biroq, u aniq ta'kidlaydi: "eng yuqori jamiyat qatlami, elita, nominal ravishda har doim ham aniq belgilanmagan, aristokratiya deb ataladigan odamlarning maxsus guruhlaridan iborat.

Atoqli italyan sotsiologi va siyosatshunosi G. Moska har qanday jamiyatning ijtimoiy mavqeい va roli bo'yicha teng bo'lmanik ikki guruhga bo'linishi muqarrarligini isbotlashga harakat qildi. 1896 yilda u "Siyosatshunoslik asoslari" asarida shunday deb yozgan edi: "Barcha jamiyatlarda, eng o'rta darajada rivojlangan va tsivilizatsiya boshlanishiga zo'rg'a erishganidan tortib, ma'rifatli va qudratli jamiyatlargacha, odamlarning ikki toifasi mavjud: menejerlar sinfi va boshqaruvchilar sinfi. boshqariladiganlar sinfi. Birinchisi, har doim nisbatan kichik sonli, barcha siyosiy funktsiyalarni bajaradi, hokimiyatni monopoliya qiladi va uning o'ziga xos afzalliklaridan foydalanadi, ikkinchisi, ko'proq, birinchi tomonidan boshqariladi va tartibga solinadi va uni ta'minlaydi siyosiy organning hayotiyligi uchun zarur bo'lgan moddiy ta'minot vositalari bilan. Moska siyosiy elitani shakllantirish muammosi va uning o'ziga xos sifatlarini tahlil qildi. U unga kirishning eng muhim mezoni boshqa odamlarni boshqarish qobiliyati deb hisoblardi, ya'ni. tashkilotchilik qibiliyati, shuningdek, elitani jamiyatning qolgan qismidan ajratib turadigan moddiy, ma'naviy va intellektual ustunlik. Umuman olganda, bu qatlama boshqaruvga eng qobiliyatli bo'lsa-da, uning barcha vakillari ham aholining qolgan qismiga nisbatan yaxshiroq, yuqori sifatlarga ega emas.

Moskaning siyosiy sinf haqidagi konsepsiysi elita nazariyalarining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi siyosiy omilni (boshqaruv qatlamiga mansub) ma'lum darajada mutlaqlashtirgani, iqtisodiyotning rolini kam baholagani uchun tanqid qilindi. Zamonaviy plyuralistik jamiyatga nisbatan bunday yondashuv asosan asossizdir. Biroq, siyosiy sinf nazariyasi totalitar davlatlarda kutilmagan tasdig'ini topdi. Bu erda siyosat iqtisodiyot va jamiyatning barcha boshqa sohalari ustidan ustun mavqega ega bo'ldi va nomenklatura byurokratiyasi timsolida Moska tomonidan tasvirlangan "siyosiy sinf" ning prototipi shakllandi. Totalitar davlatlarda siyosiy nomenklaturaga kirish, hokimiyat va boshqaruvga qo'shilish "boshqaruvchi sinf"ning iqtisodiy va ijtimoiy hukmronligining asosiy sababi bo'ldi.

O'zgaruvchan sirkulyatsiya – bu klassik sirkulyatsiya kabi darajalarining kengligi, qatlamlarining ko'pligi bilan ifodalansada, biroq bu sirkulyatsiya majburiy amalga oshiriladi. Odatda, avvalgi elitaning ag'darilishi va inqilob natijasida yangisining shakllanishi. Bunda amaldagi tizim elitasi bilan kontr elita o'rtasida kurash ro'y beradi. Sirkulyatsiyaning mazkur modeli mafkuraviy medl deb ham yuritiladi. Ushbu modelga ko'ra tranzitga uchrab namuna bo'lib keyingi bosqichga o'tayotganda avvalgi elitani saqlab qolmaydi. Bunday elita sirkulyatsiyasi AQSH elitasiga xosdir.

Reproduktiv sirkulyatsiya modeli – bu cheklangan, biroq bosqichma bosqich amalga oshadigan sirkulyatsiyadir. Mazkur sirkulyatsiya mafkuraviy elitaning parchalanishi jarayonida shakllanadi. Elita sirkulyatsiyasida o'zgarishlar u qadar bo'lmasada, biroq uning ijtimoiy toifasi o'zgaradi. Ba'zan mazkur sirkulyatsiya jarayonida elitalar kichik elitalarga bo'linishi kuzatiladi. Natijada, avvalgi elita guruhi hokimiyatda o'zini saqlab qolishi uchun kichik o'zgarishlarni amalga oshiradi va pozitsiyalarini o'zgartiradi. Ushbu model ko'proq MDH mamlakatlariga xos hisoblanadi.

Kvazi reproduktiv sirkulyatsiya – bu elitaning kam cheklangan o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Bu sirkulyatsiyada elita kichik elitalarga bo'linishi faol bo'lib, siyosiy guruhlar o'z joylarini o'zgartirishi bilan belgilani. Yani rahbarlik uslubining xilma xilligiga qaramay siyosatining tabiatini o'zgarmasdan qoladi.

Siyosiy elita tranzitida avvalgi elitaning butkul yo'lishi elita degradadsiyasi deb yuritiladi. Elita degradadsiyasining tezligi har xil bo'lishi mumkin:

Evolutsion degradadsiya – elitaning bosqichma bosqich yoq bo'lib ketishi;

Inqilobiy degradadsiya – elitaning birdan yo'q bo'lib ketishi.

Elita tranzitga uchragandan so'ng avvalgisi yo'q bo'lib o'rniغا yangisi chiqishi kerak. Shunda elitaning sifati davlat bilan jamiyatning o'zgangan sifatiga mutanosib bo'ladi.

Xulosa: Elita sirkulyatsiyasining zamonaviy kontenti ikkita nazariy sxemaga bog'liq:

Raqobatli elitezim nazaryasi – elita sirkulyatsiyasining yagona mezoni davlat lavozimlarini erkin va adolatli saylovlari orqali egallash.

Poliarxianing pluralistik modeli nazaryasi – bunda siyosiy elitaning faoliyat yuritishi va shakkalanishi mezoni raqobat va ishtirok etish tushunchalariga tayanishidir.

Bunday elita sirkulyatsiyasi modellari bugungi kun davlat boshqaruvidagi zamonaviy elitizmning rivojlanishini yaqqol ko'rsatib beradi. Hamda demokratiyaning asosiy tamoyili bo'lgan fuqarolik jamiyatni institutlarining sezilarli darajasini o'zgartiradi.

## ADABIYOTLAR:

1. Г.К.Ашин, А.В.Понеделков, А.М.Старостин, С.А.Кислицын Основы политической элитологии москва 1999
2. А.Ю.Другова, Н.П.Малетина, О.В.Новаковой Элиты стран востока москва 2011Основы политической науки. Под ред. В.П.Пугачева. – М., 1993.
3. Охотский Е.В. Политическая элита и российская действительность. – М., 1996.